XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Термиз тумани Ат-Термизий кўчаси 1-уй, тел:(376)36-32-200, факс: (376)36-32-200, (+998936343455)

2021 - yil 30 - noyabr VI-35-66-8-117-K/21 Termiz tuman hokimligi

Mahallani bo‘lish yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2021 yil 25 noyabrdagi 215-8-117-Q/21 -sonli qarori ko‘rib chiqib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori va tuman hokimining 2021 yil 25 noyabrdagi 215-8-117-Q/21 -sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Nurafshon” va “Yangiyer” mahalla fuqarolar yig‘inlarining tutash qismlarida amaldagi qonunlarda belgilangan talablar asosida **“Kelajak”** nomli yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilsin.

3. Termiz tumani “Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri” Davlat korxonasi (E.Achilov)ga ushbu bo‘linayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini belgilab, ko‘rsatib berish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman Davlat xizmatlari markazi (B.Xudoyberdiev)ga yangi tashkil etilgan “Kelajak” mahalla fuqarolar yig‘inini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini hamda muxr va tamg‘alarini olishini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (M.Amonto‘raev) yangi tashkil etilgan “Kelajak” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

6. Tuman Moliya bo‘limi (U.Kuchkinov)ga ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlarining smeta va shtatlar jadvalini ko‘rib chiqish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab berish vazifasi topshirilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tuman hokimi **Urinov Sh. B.**

Халқ депутатлари Термиз туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-35-66-8-117-K/21-сон қарорига
1-илова

Bo‘linadigan va yangi tashkil etilgan

FO‘O‘BOning nomi to‘g‘risida

T/r	**Bo‘linadigan MFY nomi**	**Bo‘linadigan MFY nomi**	**Yangi tashkil etilgan MFY nomi**
1.	Nurafshon MFY	Yangiyer MFY	Kelajak fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organi

Халқ депутатлари Термиз туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-35-66-8-117-K/21-сон қарорига
2-илова

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining umumiy maydoni

t/r	**Bo‘linadigan Yangiyer mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni**	**Bo‘lingan Yangiyer mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan umumiy maydoni**	**Yangi tashkil etilgan Kelajak mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni.**
1.	718,48 га	601,23 га	117,25 га
	Bo‘linadigan Nurafshon mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni	**Bo‘lingan Nurafshon mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan umumiy maydoni**	**Yangi tashkil etilgan Kelajak mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni.**
2.	532,70 га	346,83 га	185,87 га

Халқ депутатлари Термиз туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-35-66-8-117-K/21-сон қарорига
3-илова

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

t/r	**Bo‘linadigan Yangiyer mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**Bo‘lingan Yangiyer mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**Yangi tashkil etilgan Kelajak o‘zini o‘zi boshqarish organi chegaralari**
1.	Nurafshon MFY Yangiobod MFY At-Termiziy MFY Bunyodkor MFY	At-Termiziy MFY Bunyodkor MFY Nurafshon MFY	Nurafshon MFY Yangiobod MFY Yangiyer MFY Bunyodkor MFY
2.	Yangiobod MFY Bunyodkor MFY	Yangiobod MFY Orol MFY At-Termiziy MFY	Nurafshon MFY Yangiobod MFY Yangiyer MFY Bunyodkor MFY

Халқ депутатлари Термиз туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-35-66-8-117-K/21-сон қарорига
4-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan FO‘O‘BOning xo‘jalik soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linadigan Yangiyer MFY jami xo‘jalik soni	Bo‘lingan Yangiyer MFYda qolgan xo‘jalik soni	Yangi tashkil topgan “Kelajak” MFY xo‘jalik soni
1.	1347	843	504
	Bo‘linadigan Nurafshon MFY jami xo‘jalik soni	**Bo‘lingan Nurafshon MFYda qolgan xo‘jalik soni**	**Yangi tashkil topgan “Kelajak” MFY xo‘jalik soni**
2.	935	716	219